

## Kundalik tiklanishning birinchi bosqichi 1-noyabrdan qayta tashkil etiladi va keyingi harakatlar 29-noyabrdan boshlab amalga oshiriladi

- Virus bilan tasdiqlangan holatlarni soni tez o'sishi tufayli hamda hozirgi epidemiya tendentsiyasini hisobga olgan holda, ikkinchi qayta tiklanish rejasi qoldirildi
  - Kuchaytiruvchi emlash effekti paydo bo'lgunga qadar 4 hafta davomida joriy darajani saqlab tibbiy va karantin uchun keyingi rejalarni ilgari surish
- Uyda davolanish tizimiga o'tish
  - Virus bilan tasdiqlangan bemorlarni faqat uyda davolanish mumkin bo'lmagan hollarda tibbiy muassasaga qabul qiladigan tizim joriy etish.  
(Mavjud tizim) (Tizimga o'zgartirish kiritish)

(Tegishli holat) Agar 70 yoshgacha bo'lgan bemorlarda kasalxonaga yotqizish omillari bo'lmasa, asemptomatik va virusni engil ko'rinishi bilan tasdiqlangan bo'lsa hamda uyda qolishga rozi bo'lsa uyda davolanishga ruxsat berish  
(Istisno holat) Yashash muhiti infeksiya tarqalishiga moyil bo'lsa, boshqa asosiy kasalliklar bo'lsa, 60 yoshdan oshgan emlanmagan bo'lsa, kasalxonaga yotish uchun boshqa sababli omillari bo'lsa tibbiy muassada davolash



**(Tegishli holat) Covid-19 bilan tasdiqlangan barcha holatlar**  
- Ammo kasalxonaga yotqizish omili mavjud bo'lsa, yashash muhiti infeksiya tarqalishiga moyil bo'lsa yoki vasiysiz (bolalar, nogironlar, 70 yosh va undan kattalar va boshqalar) parvarishga muhtoj bo'lsa tibbiy muassasada davolash

- Favqulodda vaziyatlarda 24 soatlik maslahat va davolanish uchun ishonch telefonini tashkil qilish va birlashtirilgan tibbiy muassasani oldindan belgilash.
- Emlanmagan shaxslar uchun emlanishni rag'batlantirish va kuchaytiruvchi dozani o'z vaqtida amalga oshirish (buster doza).

### o Emlanmaganlarni targ'ib qilish va rag'batlantirish

- Bolalar va o'smirlar (12-17 yosh) uchun vaktsinani oldindan bron qilish tizimini qayta tiklash (2022-yil 22 yanvarga qadar), mahalliy sharoitga qarab maktab va emlash muassasasi orqali tezkor emlashni yo'lga qo'yish (Ta'lim boshqarmasi tomonidan tashkil etish).
- Tibbiyot hodimlari bilan hamkorlik qilish va boshqa sabablar bilan davolanish uchun tibbiy muassasalarga tashrif buyuradigan keksalarni faol emlashni rag'batlantirish.

○ **Tezkor kuchaytiruvchi emlashni amalga oshirish**

- Dekabr oyida qariyalar (60 yoshdan oshganlar) uchun grippga qarshi emlanish tizimi kabi oldindan bron qilmasdan tashrif buyurgan kuni emlashni amalga oshirish.
- Asosiy emlashni tugatgan 18 yoshdan oshganlarning barchasi uchun asosiy emlashdan 5 oy(150 kun) keyin kuchaytiruvchi emlashni amalga oshirish.
- Karantin ruxsatnomasi (to'liq emlanish sertifikat) uchun amal qilish muddatini 6 oy qilib belgilash va karantin ruxsatnomasi talab qilinadigan ob'ektlardan foydalanish uchun 6 oy ichida qo'shimcha emlashni talab qilish.
- Shaxsiy sababi (boshqa kasallikdan davolanishi kerak bo'lgan, chet elga chiqishi kerak bo'lgan va h.k.sabablar) mavjud shaxslar, guruhli emlanuvchi (infektsiya tez tarqalishiga moyil muassasalar, tibbiyot muassasalari va h.k hodimlari) shaxslar va qoldiq vaktsinalarni olishni xohlovchi shaxslarni standartlarga ko'ra tezkor kuchaytiruvchi buster doza bilan emlashni amalga oshirish.  
standart\* bilan solishtirganda 1 oy erta emlashni mumkin
- \* (asosiy emlash tugaganidan keyin 4 oy o'tgach) 60 yosh va undan kattalar, asosiy kasalliklari bo'lgan bemorlar, tibbiy muassasalar va infeksiyaga moyil bo'lgan muassasalar hodimlar
- \*(asosiy emlash tugagandan 5 oy o'tgach) 18-49 yosh, 50 yosh shaxslar
- \*(asosiy emlash tugagandan keyin 2 oy o'tgach) "Janssen" vaktsinasi bilan emlanganlar, immuniteti zaif shaxslar

□ Karantin qoidalarini kuchaytirish

- Infektsiya tez tarqalishiga moyil bo'lgan muassasalar, masalan kasalxonalar muassasalardan foydalanish uchun PCR testlarni kuchaytirish va qo'shimcha kuchaytiruvchi buster doza bilan emlanganlar bilan ishlash tizimini qo'lash.
- \* (Mavjud tizim) Bir martalik PCR test (kasalxonaga yotqizilganda) + 1 kun izolyatsiya uchun maxsus xonada kutish.  
→ (O'zgartirish kiritish) Ikki marta PCR test (kasalxonaga yotqizilganda va izolyatsiyaning 3chi kunida) + izolyatsiya uchun maxsus xonada 4 kun kutish.
- Keksalar uchun dam olish maskanlari (keksalar markazlari, kattalar ijtimoiy yordam markazlari va boshqalar)da qishki "kimchi" tadbirlarini o'tqazishni taqiqlash.

<Ushbu tarjima Danuri Call Center 1577-1366 tomonidan amalga oshirildi>